QASHQADARYO VILOYATI
YAKKABOG‘ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181400 Yakkabog‘ shahri, A.Temur ko‘chasi, 74-uy, Faks:(+99875) 58-25-420 t.yakkabog@exat.uz

2023 - yil 6 - fevral 33-4-68-Q/23 Yakkabog‘ tuman hokimligi

Yakkabog’ tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 27 sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentabrdagi PF–6075-son Farmonida qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Yakkabog’ tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (Sh.Husanov) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimning birinchi o‘rinbosari B.Islomov zimmasiga yuklatilsin.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**

Yakkabog‘ tuman hokimining
2023 yil 6 fevraldagi
33-4-68-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yakkabog’ tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Yakkabog’ tuman hokimining «Tumandagi dafn etish etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida »gi 2015 yil 27 fevraldagi X-357/02-sonli qarori.